



QORAQALPOG'ISTON TELEKANALIDA BOLALAR KO'RSATUVLARI TA'SIRCHANLIGI MASALALARI

Yunisova Mehriban Dauletmurat qizi

Qoraqalpoq davlat universiteti televidenie va radioeshittirishlar mutaxassisligi

2 bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada muallif bir nechta yillar oldin va bugungi kuni efirge uzatilib kelayotgan bolalar uchun ko'rsatuvlarning ta'sirchanligi masalalarini tahlilga olgan. Bolalar ko'rsatuvlari auditoriyaga qanday usullar bilan ta'sir etayotganligi masalalari aniq misollar bilan tahlil qilingan.

Kalt so'zlar: Teleko'rsatuvlar, multfilmlar, mafkuraviy g'oyalar, ko'rsatuvlarning asosiy maqsadi.

O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligiga erishgandan keyin chet tillaridagi multfilmlarni ona tiliga tarjima qilish masalalariga alohida e'tibor bera boshladi. Sababi eski davr multfilmlari davr talab javob berishi qiyin edi, undagi mafkuraviy g'oyalar davr talabina umuman javob bermasligi aniq bo'lib qoldi. Albatta bunda birinchi navbatda milliy xususiyatlardan kelib chiqqan holda tarjiba ishlari olib borildi.

Ammo, bolalarni faqatgina multfilm bilan hayoligini charg'itib bo'lmaydi. Nimaga deganda bolani har tomonlama tarbiyalash uchun har hil mavzudagi va yo'nalishdagi ko'rsatuvlar kerak edi. Shunga qaramastan bolalar uchun ko'rsatuv tayyorlash jarayoni ancha murakkab va qiyin masala hisoblanadi. Nimaga deganda bolalar uchun ko'rsatuvlarda uni tayyorlaydigan jurnalist bola holatiga tushishi va bola kabi uylaydigan bo'lishi kerak.

Bolalar ko'rsatuvlariga bolalarni jalb qilish mumkin. Bola baribir bolaligini qiladi va ko'rsatuvning mazmunga boy bo'lishi ancha oqsab qolishi ehtimoli yuqori bo'ladi.

So'ngi yillari Qoraqalpog'iston telekanalida bolalar uchun qanday ko'rsatuvlar tayyorlanmoqda? Mana shu savollarga javob qidirib ko'rdik:



«Kim epshil, kim shaqqan» ko'rsatuvi 1993-yildan boshlab doimiy ravishda efirga uzatilib kelinmoqda. Ko'rsatuvning asosiy maqsadi maktabgacha bilim maskanlarida tarbiya olayotgan bolalarni har tomonlama bilimdon, jismoniy tomonidan yetilgan insonlar etib tarbiyalash hisoblanadi. Ko'rsatuv asosan o'n shartdan iborat bo'ladi, har bir komandada o'n a'zo bo'ladi, unda bolalar bog'chalari tarbiyalanuvchilaridan tashkil topgan ikki komanda bir-biri bilan bellashadi. Bolalar qo'yidagi shartlar asosida bellashadi:

1. qoshiqga solingan tuxumni oldindan ma'lum bo'lgan oraliqgacha yerga tushirmasdan yeltib ko'yish.
2. Ichiga dam solingan rezinka eshakni minib, sekirish yo'li bilan belgilangan manzilga yetib borishi kerak.
3. Bolalar yarim aylana ostidan o'tib, o'rindiqning o'stidan yugirib belgilangan oraliqdan aylanib qaytishi kerak.

Musobaqa davomida jamoalar ball yig'ib borishadi va ko'p ball yig'gan jamoaga'olib deb topiladi.

«Oylan, izlen, tap...» ko'rsatuvi efirga chiqqaniga ancha vaqt bo'ldi. Ya'ni 1991-yildan boshlab telekanalning doimiy ko'rsatuvlar sirasiga kirdi. Ko'rsatuvning asosiy maqsadi respublikadagi umummiy o'rta ta'lim maktablarida bilim olayotgan maktab o'quvchilarining olgan bilimlarini yana ham yetilishtirish, ulardan fanlarga, ilmga bo'lgan qiziqishini yana ham yuksaltirish hisoblanadi.

Ko'rsatuv uch bosqishdan iborat, unda umumta'lim maktablarida bilim olayotgan 5-9 sinfning uch o'quvchisi bellashadi. Ko'rsatuvda «Basqatirma», «Naqildi'ni izin davam etiw», «Soraw juwap» shartlari bor.

Ko'rsatuv boshlovchilari maktab o'quvchilari orasidan tanlab olinadi. U asosida studiyada olib boriladi. Ko'rsatuv g'oliblari Respublika xalq ta'limi vazirligi va joylardagi xalq ta'limi bo'limlari tomonidan taqdirlanishadi. Ko'rsatuvda beriladigan savollar oldin ola tahririyat tomonidan yaxshilab tayyorlanadi va bosh muharrir tomonidan tekshirilib chiqiladi.



Qatnashuvchiga beriladigan savolda o'quvchi o'zi haqida, o'zi bilim olayotgan ona maktabi, ota-onasi, o'zi tanlagan kasb, kelajakda kim bo'lmoqchi ekanligi bo'yicha savollarga javob beradi. Bundan tashqari, har bir fan bo'yicha (masalan, ona tili, tarix, geografiya, matematika) ham savollar beriladi.

Ko'rsatuvning ikkinchi bosqichi «Basqatirma» deb nomlanadi, bunda o'quvchining uydash qobilayati sinaladi. Bu esa bolaning uylash qobilayati rivojlantiradi.

Albatta bolani milliy ruxta tarbiyalash kerak. Bunda esa naql-maqollarni bili shva ahamiyat kasb etadi. Sababi naqlar ota-bobalar tomonidan o'z hayot tajribasi asosida yaratilgan.

«Jumhaqlar atawı» ko'rsatuvi bolalar uchun kerakli hisoblanadi. Bolaning uylash qobilayati, zehni oshirishda topishmoqning o'rni behies hisoblanadi.

Ko'rsatuv 2010 yili yanvar oyidan boshlab efirga uzatilib kelinmoqda. Unda asosan 4-9 sinf o'quvchilari qatnagadi. Qatnashuvchilar soni 7 o'quvchidan iborat bo'ladi va ular topishmoqning javobini aytish, boshqotirma, tomonlangan harflardan odam ismlarini topishi kerak bo'ladi.

«Shaqqanliq maydanı» ko'rsatuvida asosan maktab o'quvchilari bolalar sport maydonchasida o'zaro belleshib, bir nechta bosqichlar asosida o'z chaqqonligini sinab ko'rishadi.

Ko'rsatuvning eng abzal tomonlaridan biri bolada sportga bo'lgan intilishni oshiradi. Nimaga deganda bola o'zi kabi bolalarning ishlaganini ishlagisi, undan qolishmaslikka intiladi. Ularda sport bilan shug'ullanishga intilishadi, sport esa insonda salomatlikni va tetiklikni oshiradi.

Bizning fikrimizcha, zamonaviy bolalar uchun bag'ishlangan ko'rsatuvlar ma'lumot berish turiga kiradigan axboriy-publitsistik, ilmiy-ommabop, madaniy ko'ngil ochar tomonlari bo'lishi zarur. Ayniqsa bolalar uchun bag'ishlangan ko'rsatuvlarga tarbiyaviy vazifa yuklatiladi.

Bolalar uchun ko'rsatuvlarda tarbiyaviy vazifalarni amalga oshirishi uchun qo'yidagi maqsadlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq keladi.

- bolada axboriy makonnin paydo etish;



- ijtimoiy mobillikni oshirish;

- bolalar uchun bag'ishlangan ko'rsatuvlarning maktab bolalarining ma'lum bir yosh kategoriyaga yo'naltirilganligi.

Bugungi kuni Qoraqalpog'iston telekanali orqali efirga berilayotgan bolalar uchun ko'rsatuvlar soni o'ncha ko'p bo'lmasa ham ularning solmog'i yuqori bo'lishi kerak. Ularga ajratilgan vaqt ko'lami katta emas. Bugun bolalarimizning zamonaviy kommunikatsion texnologiyalardan erkin holda foydalana olishi uchun kompyuter texnologiyalarini, boshqada uskunalarda ish olib borish mumkinchiliklarini o'rgatib boradigan ko'rsatuvlarni tayyorlash zarurati paydo bo'lmoqda. Sababi, bola yangilikka intiladi. Bundan tashqari zamonaviy texnikalardan bolalarning ham xabari bo'lishi ahamiyatli hisoblanadi.

Shunday ekan ko'ngil ochar ko'rsatuvlarda bolalarning chaqqonligini, epchilligini yuksaltiradigan bosqichlar bilan birgalikda yangi topshiriqlar tayyorlanishi kerak. Bugungi kuni shunday ko'rsatuvlar bor, ammo ko'rsatuvlarning ko'pchiligi bir nechat yillar davomida bir qolipta qolib ketgan va o'zgarishlar yo'k. Bundan biroz yillar oldin efirga uzatilib kelingan ko'rsatuv bugungi kun bolasi talabiga to'g'ri kelmaydi, yoki ularga boshqacha yo'l topish lozim. Buning uchun O'zbekiston telekanallaridagi kabi bolalar uchun ko'rsatuvlarining yaxshi tomonlarini ko'zatib borgan holda ularga andoza olish kerak.

Nimaga deganda bola ongi hamma narsani tex qabul qiladi. Shuning uchun ularning o'zicha fikrlashi, beralayotgan savollar atrofida uylanishga imkoniyat yaratadigan intellektual ko'rsatuvlar tayyorlab borish zamon talabi hisoblanadi. Masalan, «Bolajon» telekanalidagi «Bilagon, bolajon», «Katta tanaffus», «Quvnoq alifbo» kabi ko'rsatuvlar bolalarning intellektual salohiyatini rivojlantirish bilan birga ularda epchillik va chaqqonlikni ham rivojlantiradi. Demak shunga uxshash ko'rsatuvlar sonin ko'paytirib zamon talabi hisoblanadi.

Ko'rsatuvlarning janr-format, auditoriyasi, tematikasi bo'yicha olib borilgan tahlillar natijasida qo'yidagilar aniqlandi:



- Teleko'rsatuvlarda bolalar tarbiyasi, bolalarning bilim olishi va ularni salomat hayt tarziga tarbiyalash masalalari keng turda qamrab olingan;

- Dunyoni bilgisi keladigan, o'zini qamrab olgan makonda bo'layotgan yangiliklardan bohabar bo'lishga harakat qiladigan kichkina teletamoshabinlar uchun bashqa davlatlar bilan tanishtirishga bag'ishlangan ko'rsatuvlar, masalan «Balalar dúnyasi» ko'rsatuvi harakat qilmoqda. Eng asosiysi ko'rsatuv bir tomondan kichkina tamoshabinlarni zehnli do'stlari bioan tanishtirib qo'ymasdan, unda davlatlar, o'simliklar, hayvonatlar dunyosi bilan ham tanishtirib boradi;

- Ko'rsatuvlarning formalarida ham yangiliklar bor. Misoli, ko'rsatuvlarning ayrimlarida bolalar o'z formasiga ega, bundan tashqari ayrim ko'rsatuvlarning boshlovchilari ham o'z kiyimlariga ega;

- Qoraqalpog'iston telekanalida bolalar uchun ko'rsatuvlarning ko'pchiligi kichik va o'rta yoshdagi bolalarga bag'ishlangan. Albatta yuqori sinf o'quvchilari uchun ham ko'rsatuvlar bar, ammo ular juda oz.